

“ULUG' SALTANAT” ROMANIDAGI ADABIY QAHRAMONLAR PORTRETLARINING QIYOSIY TAHLILI

Orazbaeva Asal

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15095358>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi, Filologiya fanlari nomzodi Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” romanidagi adabiy qahramonlar portreti bir-biriga qiyosiy tarzda tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: portret, syujet, mimika, detall, personaj.

Kishilarning asardagi badiiy, soʻz vositasida chizilgan tashqi qiyofasi-portret deb ataladi. Portret yana qahramonning gap oangi, oʻziga xos qiliqlari va turli ruiy holatlar munosabati bilan uning yuzida boʻladigan oʻzgarishlar (mimika) ham kiradi. Adabiyotshunos Izzat Sultonning «Adabiyot nazariyasi» nomli darsligida quyidagi fikrlar bildiriladi:

Portret maʼlum darajada kishining ichki dunyosini inʼikos ettiradi va shu sababli syujetda bizni voqealarni tez va toʻgʻri tushunishga tayyorlaydi. Bundan tashqari portret muallifining tasvir etilayotgan kishiga munosabatini ham tayin etadi, yaʼni shu shaxsning syujetda oʻynaydigan roli haqida bizga oldindan darak beradi: Muhammad Alining «Ulugʻ saltanat» asarida Amir Temurning alohida eʼtibor bilan, odatiy xislatlarga oʻxshamagan xususiyatlarni ochib beruvchi portretni uning asaridagi bosh qahramon ekanligini, Amir Musoga nisbatan chizilgan portret esa uning oʻzgaruvchan obraz ekanligini oldindan anglab boramiz. Demak, portret ham badiiy asarda maʼlum gʻoyaviy-estetik vazifa bajaradi.

Portretni ikki xil yoʻl bilan yaratish mumkin: qahramonning tashqi qiyofasi hikoyaning boshidanoq, asoson chizib beriladi yoki asar davomida tasvir etilgan detallardan oʻquvchi zehnda asta-sekin butun portret namoyon boʻladi. Badiiy asarda inson tasviri uchun eng muhimi uning ichki dunyosidir, shu tufayli baʼzi personajlarning tashqi qiyofasi chizilmasdan tashlab ketilishi ham mumkin. (bu holda portretni mustaqil ravishda paydo boʻladi) Odatda bosh qahramon batafsil tasvirlangan portretga ega boʻladi. Yozuvchi inson orazini yaratar ekan uni turli vaziyatda, holatda tasvirlaydi, tashqi qiyofasini, ruhiy kechinmalarini, xatti-harakatini, nutq madaniyatini, boshqalar bilan munosabatini koʻrsatadi. Shu yoʻl bilan u kishilarning jonli obrazini kitobxonlar koʻz oldida gavdalandiradi. Personajning kulgusi, yuz tuzilishi, ovozi, hatti-harakati tasvirlari uning qiyofasini aniqlab olishga yordam beradi. Yozuvchi portret orqali kitobxonda qahramonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosi yorqin tasavvur hosil qiladi. Psixologik portret yozuvchiga personajning tashqi qiyofasi orqali uning ruhiy dunyosini ochishga yordam beradi. Shunga koʻra, portret yozuvchining shaxsiy uslubi, mahorati va maqsadiga bogʻliq holda turli darajada beriligi mumkin. Portret yaratishda har bir yozuvchi oʻziga xos usulni qoʻllaydi. Ammo qaysi usulni qoʻllamasin, u yaratgan portret asar gʻoyasi, obrazlar xarakteri bilan bogʻlanadi.

N.G.Chernishevskiy bunday degan edi: «Syujetsizlik-badiiysizlik demakdir». Syujetni esa, maʼlumki, qahramonlar harakatiga keltiradi. Qahramonlar bir-biridan farqlanish orqali ijobiy va salbiy kuchlarga taqsimlanib, kitobxon guvohligida asar soʻnggiga qadar bellashadi. Ularning farqlarini ularga berilgan portretlar va xarakterlar asosidagi nomlari bilan ajratib olamiz.

Muhammad Alining "Ulugʻ saltanat" romanidagi qahramonlar portrettini qiyoslar ekanmiz, ulardagi qator tafovutlarni anglash qiyin emas. Biz asardagi bosh qahramon-Amir

Temur portretini adib qalami bilan chizib bergan edik. Natijada tasavvurimizda ma'rifatparva, adolatli, haqgo'y, iymoni but, bahodir hukmdor siymosini shakllantirgan edik. Endi har bir badiiy asarda bo'lgani kabi ijobiy kuchlarga yon bosuvchi va salbiy boshchilik qiluvchi, qo'llab-quvvatlovchi qahramonlar portretining qiyosini ko'rib chiqamiz.

Asardagi Amir Muso portreti: «O'rta bo'yli, ko'zlari irg'ib chiqqan, qirqlar chamasidagi tabiati bahor havosi kabi o'zgaruvchan, ahdu paymoni ham shunga munosib». Yana «Yakam-dukkam siyrak qoshli, katta, keng peshonali». Bir kuni Temurbek tarafida ayuhannos solib ot sursa, boshqa kuni sidqidil Amir Husayn qilichini chopar, fe'l-atvorini aniqlab bo'lmas darajada bir odam edi. Xatti-harakalarida qoimlik yo'qligi uning o'z jonini ham ming azob-uqubatga otardi, ammo u buni anglab etmasdi. Amir Turkiston tarafidagi Amir Sayfiddin esa butunlay o'zgacha, Amir Muso qarama-qarshi portretga ega:

«Darozi bo'yli, ko'rkam yuzli, soqol-muylabi tekis qirilgan xushbichim» Rostgo'y, qat'iyatli, bir so'zli kishi ekanligi qiyofasidan anglashilib turadi.

Amir Temur tarafdorlaridan bo'lgan Sohibqironning qayinotasi Amir Joku barlos: halol, aqlli, serg'ayrat, haqparvar:

«Qisqa muylabli, uzun cho'qqi soqolli, qilich tegib ketib ikkiga jralib, yapachsqi bo'lib qolgan burni qizg'ish tusli». Amirlarning ichida ulug'i, ellik yoshlarda.

Temurbekning singlisi Shirin beka shavhari, adolatsizliklariga tezda qilich kuchi bilan chora ko'rguvchi Amir Muyyad arlot:

«Ovozi bo'g'iq o'zi, o'zi jussador, shop-mo'ylov, yoshi o'ttiz beshlarda edi».

«O'ng yuziga bilinar bilinmas qilich izi ko'rinib turuvchi»-portret sohibi-Temurbek egachisi Qutlug' Turkon oqoning shavhari (eri) o'ylaganini odamning betiga shartta aytadigan, haqiqat yo'lida o'limdan ham tortmas qirq besh yoshlardagi pahlavon kelbat, xo'roz urushtirish joni-dili bo'lgan Amir Dovud dug'lat.

Allohning inoyati ila yigitlik chog'ida jon qushini qafasidan soqit qilgan, Amir Temurning ishonch tog'i Jahongir Mirzo:

«Baland bo'yli, durkun, yumshoq ko'ngli, tiniq yuzli, yorqin mo'ylabi endigina sabza urgan amirzoda».

Juvonmard Abbas bahodirning oshnasi, Jahongir Mirzoning hamdamu hamxonasi Axit Jabbor:

«Baland bo'yli, shop mo'ylov, jussador».

Amir Temurning piri murshidi, do'sti, duogo'yi, Mir Sayyid Baraka: «O'rtacha bo'yli, boshidagi oq dastor sala pechi chap elkasiga tushib turibdi, quzlari katta-katta, yumaloqdan kelgan yuzlari qip-qizil, istarasi issiq xushro'y bir odam...Yoshi qirqlarga borib-bormagan, harnechuk qalin soqoli qop-qora».

Temurbekning ayoli, do'sti, maslahatchisi Saroymulxonim: «Yuzlari qirmizi oq, chap yuzidagi kichkina chiroyli xoli, ikki chekkasidagi gajak bo'lib qayrilgan zulfi, bejirimgina burni, yoqut lablari o'ziga quyib qo'yganday yarashgan...»

Xonzoda xonimning portreti: «Nur bilan chayilganday oqsaridan kelgan tiniq yuzlari jozibaga to'la, tim qora hilol qoshlar chiroyli, shahlo ko'zlari o'tli, yupqa aqiq lablari jon oladi, irinining o'ng tomonidagi mo'jazgina qora xoldan boshqa bu toza ruxsorga daxl etgan biron nimarsa yo'q...»

The writer Muhammad Ali describes the character of Timur in his work, illustrating how he is perceived by those close to Timur. For example, Timur's loyal follower Muhammad Churogha describes him as follows:[2]“Temurbek tabiatan o‘ziga xos inson. U bir so‘zli, saboti mahkam, fikrini hadeb o‘zgartiravermaydi, dushmanga aytgan so‘zi o‘q, do‘stga aytgani davodir. Temurbekning yurish-turishi, tutumi, bilimi, odobi, muomalasi, ahd-paymoni, ko‘nglidagi niyatlari, shahd-u shijoati, qo‘rqmas-u mardligi, do‘stlarga sadoqati, dushmanlarga shafqati-bari-bari qo‘shilib ulug‘likka da‘vo qilardi.” [1.160]

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat” asarida har bir personajning portretini yaratishda, albatta, ularning tarixini aniqlab, undan keyin o‘z mahoratidan mohirona foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat I” . DAVR PRESS NMU . Toshkent 2019
2. Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” Toshkent “O‘qituvchi” 1986
3. Sayidova Shahrizoda ANALYSIS OF ATTITUDES TOWARDS THE IMAGE OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI’S EPIC NOVEL “ULUG‘ SALTANAT” THE LIGHT OF CIVILIZATION journal 2024.